



THE ARTISTIC INTERPRETATION OF NATIONAL IDENTITY IN JAPANESE PROSE: A CASE STUDY OF OSAMU DAZAI'S "NO LONGER HUMAN"

Nadjimkhodjayev Marufkhodja Sunnatovich

Independent Researcher, Tashkent State University of Oriental Studies

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15657214>

ARTICLE INFO

Received: 06th June 2025

Accepted: 12nd June 2025

Online: 13rd June 2025

KEYWORDS

Osamu Dazai, translation, translator, realia, culturally specific words, national identity, psychological portrait, transliteration, lacuna.

ABSTRACT

This article discusses the artistic interpretation of national uniqueness in the Uzbek translation of Osamu Dazai's novella "No Longer Human," published in 1948, translated directly from Japanese by Zumrad G'afforova. The work is written in an autobiographical tone, depicting themes of human dignity, shame, loneliness, and alienation through the emotional experiences of the main character, Oba Youzou.

YAPON NASRIY ASARLARIDA MILLIY O'ZIGA XOSLIKNING BADIY TALQINI "OSAMU DADZAINING "INSONIYLIKDAN MAHRUM ODAM" QISSASI MISOLIDA"

Nadjimxodjayev Ma'rufxodja Sunnatovich

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti mustaqil tadqiqotchisi

marufnadjim@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15657214>

ARTICLE INFO

Received: 06th June 2025

Accepted: 12nd June 2025

Online: 13rd June 2025

KEYWORDS

Osamu Dazai, tarjima, tarjimon, realiya, milliy o'ziga xos so'zlar, milliy identitet, psixologik portret, transliteratsiya, lakuna.

ABSTRACT

Ushbu maqola XX asr yapon adabiyotining yetakchi vakillaridan biri Osamu Dazaining 1948-yilda nashr etilgan "Insonlikdan mahrum odam" qissasining tarjimon Zumrad G'afforova tomonidan bevosita yapon tilidan o'zbek tiliga tarjima qilingan qissaning milliy o'ziga xoslikning badiiy talqini haqida so'z yuritiladi. Shuningdek bu asar avtobiografik ohangda yozilib, bosh qahramon Oba Youzou qalb kechinmalari orqali insoniy qadr-qimmat, sharm va uyat, yolg'izlik va begonalashuv mavzularini teran tasvirlanadi.

Bugungi globallashuv jarayonida turli xalqlarning adabiy merosi o'zaro ta'sirga kirishib, madaniy muloqot vositasiga aylanmoqda. Ayniqsa, yapon adabiyoti o'zining betakror estetikasi, falsafiy chuqurligi va milliy koloritini saqlagan holda dunyo miqyosida alohida o'ringa ega. Yapon tilidan nasriy asarlarni boshqa tillarga tarjima qilishda milliy o'ziga xoslikni saqlash va uni qayta yaratish masalasi butun dunyo tarjima ilm-fanida eng dolzarb muammolardan biriga aylangan. Chunki har bir xalqning dunyoqarashi, his-tuyg'ulari va



g'oyalari boshqa madaniyatlarga to'g'ri va nozik tarzda yetkazilishi faqat chuqur ilmiy yondashuv orqali amalga oshirilishi mumkin.

Yapon tilidan nasriy asarlarni tarjima qilishda milliy o'ziga xoslikni qayta yaratish masalasini o'rganish tarjima nazariyasi va amaliy tarjima sohalari uchun muhim metodologik va nazariy ahamiyatga ega. Ushbu tadqiqot natijalari milliylikni saqlagan holda tarjima qilish usullarini takomillashtirish, intertil va intermadaniy kommunikatsiya mexanizmlarini chuqur tahlil qilish imkonini beradi. Bu esa kelgusida tarjima nazariyasida yangi konsepsiyalarni ishlab chiqish hamda turli madaniyatlarning o'zaro anglashuvini kuchaytirishga zamin yaratadi.

O'zbekiston bugungi kunda o'z milliy adabiyotini targ'ib qilish va jahon adabiyoti namunalarini o'zbek tiliga mukammal tarjima qilish borasida keng qamrovli islohotlar olib bormoqda. Bu borada Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev shunday ta'kidlagan edilar: "Bizning maqsadimiz – jahon adabiyotining eng sara namunalarini o'zbek tiliga tarjima qilish va xalqimiz ma'naviyatini yuksaltirish, yoshlarimizda badiiy ta'b va dunyoqarashni boyitish."¹ Shuningdek, Yaponiyaga bo'lgan qiziqishning ortib borayotgani va ikki davlat o'rtasidagi madaniy aloqalarning faollashuvi yapon adabiyoti tarjimasiga ehtiyojni yanada oshirmoqda. Shu sababli, ushbu mavzuda ilmiy izlanishlar olib borish O'zbekiston uchun ham madaniy, ham ilmiy jihatdan o'ta dolzarb hisoblanadi.

Osamu Dazai – XX asr yapon adabiyotining yetakchi vakillaridan hisoblanadi. Yozuvchining chuqur psixologik tasvir va tahlilga, o'tkir fikr-mushohadaga boy asarlari yapon nasrida modernism rivojiga kata hissa qo'shgan. Shaxsning jamiyatda yolg'izligi, ijtimoiy qarama-qarshilik, tengsizlik, insoniy zaifligi, uning oqibatlari haqida kuyinib qalam tebratgan. Osamu Dazaining asarlari usluban soda bo'lsa-da, betakror she'riy ohangi bilan o'ziga jalb etadi.

1948-yilda nashr etilgan "Insonlikdan mahrum odam" qissasi adibning eng mashhur qilgan asarlaridan biri hisoblanadi. Asar avtobiografik ohangda yozilib, bosh qahramon Oba Youzou qalb kechinmalari orqali insoniy qadr-qimmat, sharm va uyat, yolg'izlik va begonlashuv mavzularini teran tasvirlaydi. Mazkur qissa tarjimon Zumrad G'afforova tomonidan "Insonlikdan mahrum odam" nomi bilan o'zbek tiliga bevosita yapon tilidan tarjima qilingan bo'lib, ushbu maqolada tarjima matni va asliy matnni taqqoslash orqali yapon nasriy asarlarida milliy o'ziga xoslikning badiiy talqini ko'rib chiqiladi.²

"Insonlikdan mahrum odam" qissasida yapon milliy realliyalari va madaniy unsurlar muhim o'rin tutadi. Tarjimon bu unsurlarni imkon qadar asl holicha qoldirishga harakat qilgan. Masalan, asarda yaponcha kiyim-kechak nomlari bevosita transliteratsiya bilan berilgan: original matndagi "荒い縞の袴" so'z birikmasi (qo'pol chiziqli hakama, an'anaviy yapon kiyimi) tarjimada "qo'pol yo'l-yo'l hakamada" deb aynan berilgan.³ Tarjimon "hakama" so'zini o'zbekchalashtirmasdan, asl atamani ishlatgan va uni "yo'l-yo'l" (chiziqli) sifatlovchi bilan tushuntirgan. Bu usul o'quvchiga yapon milliy libosi haqida tasavvur hosil qilish imkonini beradi, shu bilan birga milliy koloritni saqlaydi. Xuddi shunday, yaponlarning yozgi kiyimi "yukata" ham tarjimada asl nomi bilan keltiriladi: "Bir kuni yozda yukata ichidan qizil yungi

¹ Prezidentning "Yoshlar yili"ga bag'ishlangan nutqi, 27 dekabr 2017 yil, president.uz

² G'afforova Z. "Insonlikdan mahrum odam" asari bevosita tarjima. Jahon adabiyoti jurnali iyul soni. 2024-yil. 9-83 betlar.

³ 『人間失格(にんげんしっかく)』 ふりがなつき | Zipangu Books)



jemperimni kiyib chiqib hammani kuldirdiganman". Asliy matnda Youzou yoshligida kulgi qozonish uchun kutilmagan kiyinishlari tasvirlanadi. O'zbek o'quvchisi uchun "yukata" so'zining o'zi notanish bo'lsa-da, kontekstdan bu bir tur kiyim ekani anglashiladi. Tarjimon ushbu atamalarni izoh bilan ta'minlamagan, ammo matn mohiyati tushunilishi uchun kontekstga tayangan.

Tokio shahri va Meiji ibodatxonasi, Kusunoki Masashige haykali, Sengakuji ibodatxonasidagi 47 samuray qabrlari kabi joy nomlari ham bevosita nomma-nom keltirilgani bunga misoldir. Tarjimon xorijiy so'z va nomlarni imkon qadar asl holda qoldirib, begona muhitni o'zbek kitobxonasiga "tarjima orqali sayohat" qildirishga muvaffaq bo'lgan – bu esa tarjimada milliy identitetni qayta yaratish, ya'ni yapon milliy ruhini o'zbek tilida ham his ettirish demakdir.

Shu bilan birga, ayrim joylarda tarjimon madaniy tushunchalarni sodda yo'l bilan tushuntirish yoki o'zgartirishga ham borgan. Masalan, kichik Oba Youzouning temiryo'l bekatidagi ko'priklarni ko'rib hayratlanishi epizodida original matnda "bekat ichini xorij o'yin maydonchasidek murakkab va zamonaviy ko'rinishli qilish" degan fikr bildiriladi. Yozuvchi bu yerda "ハイカラに" (haikara – zamonaviy, g'arbona uslubda) iborasini qo'llab, bolakay tasavvurida temiryo'l bekati xorijiy (g'arbona) attraksion maydonga o'xshatilganini ta'kidlagan.⁴ Tarjimada esa bu jumla biroz soddalashtirilib, "bekatni bolalar maydonchasi kabi qiziqarli qilish uchun qurilgan deb o'ylardim" shaklida berilgan. Ya'ni, "xorijiy o'yin maydonchasi" o'rniga oddiy "bolalar maydonchasi" deyilgan va "murakkab hamda zamonaviy" degan mazmun "qiziqarli" so'zi bilan qisqaroq ifodalangan. Bu o'zgarish tarjimada madaniy nuansning biroz yo'qolishiga olib kelgan: original matndagi G'arb dunyosiga ishora qiluvchi kinoya o'zbekcha variantda payqalmaydi. Shunga qaramay, bu sodda ifoda o'zbek o'quvchisi uchun tushunarliroq bo'lish maqsadida tanlangani seziladi. Tarjimon asarning umumiy milliy ruhini xorijlashtirmagan holda, ayrim tafsilotlarni o'zbek kitobxoniga yaxlitroq yetkazish uchun shunday yo'l tutgan.

Tarjimon milliy realliyalarni saqlash bilangina cheklanmay, qo'shimcha izohlar orqali tushunishni osonlashtirgan holatlar ham bor. Masalan, asarda qahramonga bir tanishi "Sen Yaponiyaning Tohokudagi Harold Lloydgan" deya hazil qiladi – bu bilan uning qiliqlarini 1920-yillar Amerika kinokomigi Harold Lloydga qiyoslaydi. Tarjimada bu o'xshatish tushunarli bo'lishi uchun izohli tarzda keltiriladi: "O'sha paytlari Harold Lloyd ismli xorijlik komik aktyor Yaponiyada juda mashhur edi" deb qo'shimcha jumla kiritilgan.⁵ Keyingi holatlarda "Men Yaponiyaning Tohoku mintaqasidagi Harold Lloydni edim, xolos" tarzida aynan tarjima qilingan. Bu usul – tarjimonning asl matnga qo'shimcha sharh berishi – o'quvchiga Harold Lloyd kim ekani va qahramon qiyofasi qanday kinoyali taqqoslangani darhol anglashga yordam beradi. Asliy matnda bu izoh bo'lmasa-da, o'zbekcha nashr muloqot ravonligini buzmagani holda bunday madaniy izoh qo'shgan. Xulosa qilish mumkinki, tarjimon milliy identitet va madaniy unsurlarni maksimal darajada saqlagan holda, o'zbek kitobxonining umumiy madaniy bilim doirasini ham inobatga olib ish yuritgan. Bu yondashuv asarning yaponcha ruhini saqlash barobarida, uning o'zbek o'quvchisi uchun tushunarli bo'lib qolishini ta'minlagan.

⁴ G'afforova Z. "Insonlikdan mahrum odam" asari bevosita tarjima. Jahon adabiyoti jurnali iyul soni. 2024-yil. 12-bet.

⁵ G'afforova Z. "Insonlikdan mahrum odam" asari bevosita tarjima. Jahon adabiyoti jurnali iyul soni. 2024-yil. 21-bet.



“Insonlikdan mahrum odam” qissasida usluban ichki monolog va kechinmalarga boy, ohangi esa fojiali va xulosakorona qilib yozilgan. Dazai asliy matnda ilk jumladan boshlab bir umr davom etgan uyat va o'zlik hissini tantanali ohangda e'lon qiladi: “恥の多い生涯を送って来ました” – “Uyatga ko'p boy hayot kechirdim”.⁶ Tarjimon bu mashhur satrni o'zbek tilida xuddi shu ruhda ifodalaydi: “Sharmandaliklarga boy umr yo'lini bosib o'tdim.”. Mazkur tarjima originalga juda yaqin – “恥” (haji, uyat) so'zini “sharmandalik” deb berish va “hayot yo'lini bosib o'tmoq” iborasi bilan “生涯を送る” (umr kechirmoq) iborasini ifodalash juda mos ekani ko'rinib turibdi. Tarjima uslubi asliyidagi kabi birinchi shaxs monologi tarzida olib boriladi; bunda tarjimon O. Dazaining samimiy va fojiali ohangini ushlab qolgan. Misol uchun, Youzou o'z hayotini baholarkan, tarjimada “Men endi inson emasdim” deya xulosa qiladi – bu jumla asarning kulminatsion ohangini beradi va original matndagi “人間失格。もはや、自分は人間ではなくなりました” degan so'nggi iztirobli e'tirofni to'liq aks ettiradi.⁷

Yana bir misol: asliy matnda Dazai ba'zan murakkab rasmiy uslubga o'tadi, masalan, “頗る実利的な階段に過ぎない” kabi iboralar (juda amaliy oddiy narvon xolos) uchraydi. Tarjimon bunday joylarda rasmiylikni me'yorida saqlagan holda, o'zbekchada erkinroq ifodalaydi: “zaruriy inshoot ekanini bilib hafsalam pir bo'ldi” deb, murakkab atamalardan ko'ra o'quvchi tiliga yaqinroq tarzda ifoda etgan. Tarjima matnida sodda og'zaki uslub elementlari ham mavjud – bu originaldagi ichki dialoglarni o'zbek kitobxonasiga yaqinlashtiradi. Masalan, Youzou va uning do'sti Xoriki o'rtasidagi suhbatlarda oddiy xalqona so'zlar qo'llanadi: “Bema'ni gaplarni qo'y. Men hali senga o'xshab sharmandalik qilmaganman” kabi iboralar Xoriking keskin nutq uslubini ko'rsatadi. Bunday joylarda ham tarjimon asliy ruhni saqlab, o'zbek tiliga xos ifodalar bilan tabiiylashtirgan.

Xulosa o'rnida aytganda, “Insonlikdan mahrum odam” tarjimasi original asarning badiiy qiymati va mazmuniy qatlamlarini munosib ravishda o'zbek tilida qayta yaratgan. Tarjimon milliy identitet unsurlarini ehtiyotkorlik bilan saqlagan holda, asarning g'oyaviy-badiiy butunligini ta'minlashga erishgan. Albatta, ayrim uslubiy farqlar va ifoda tafovutlari mavjud, lekin bular tarjimaning umumiy muvaffaqiyatiga putur etkazmaydi – aksincha, o'zbek kitobxonining dunyoqarashi va til didiga moslab, asar ta'sirini kuchaytirishga xizmat qilgan. Dazai yaratgan psixologik portret – insonlikdan tamoman mosuvo bo'lgan shaxs tragediyasi – o'zbek o'quvchisi tomonidan ham chuqur his etilmoqda, bu esa tarjimaning eng katta yutug'idir. Shunday qilib, ushbu qiyosiy tahlil natijasida, milliy identitetni tarjimada qayta yaratish borasida mazkur o'zbekcha tarjima namunasi yuqori bahoga loyiq, deb xulosa qilish mumkin.

References:

1. G'afforova Z. “Insonlikdan mahrum odam” asari bevosita tarjima. Jahon adabiyoti jurnali iyul soni. 2024-yil. 75 bet.
2. 太宰治 『人間失格』 (にんげんしっかく) Chikumashobo Ltd. 1948.
3. Hamidov X. “Tarjima va tarjimashunoslik”. Risola. Toshkent-2023 yil. 65 bet.

⁶ O'sha yerda. 11-bet.

⁷ G'afforova Z. “Insonlikdan mahrum odam” asari bevosita tarjima. Jahon adabiyoti jurnali iyul soni. 2024-yil. 65-bet.



4. Salomov G'. "Tarjima nazariyasi asoslari". Toshkent-1983 yil.
5. Prezidentning "Yoshlar yili"ga bag'ishlangan nutqi, 27-dekabr 2017 yil, president.uz